

**INSON QADR-QIMMATI VA IJTIMOY ADOLAT MUAMMOSINING BADIY  
REPREZENTATSIYASI: JON STAYNBEK VA ABDULLA QAHHORNING  
“NAFRAT UCHQUNLARI” VA “O‘TMISHDAN ERTAKLAR” ASARLARI  
MISOLIDA**

**Norqulova Eleanora Ismatulla qizi**

*Qarshi davlat universiteti 2-kurs Lingvistika (ingliz tili) magistranti*

*E-mail: @eleanorankulov@gmail.com*

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Amerika adabiyotining yirik namoyandasi John Steinbeckning “Nafrat uchqunlari” romani hamda o‘zbek adabiyotining atoqli vakili Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasida inson qadr-qimmati va ijtimoiy adolat muammosining badiiy representatsiyasi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda asarlardagi ijtimoiy tengsizlik, kambag‘allik, inson huquqlari, ma‘naviy erkinlik va adolat masalalarining badiiy talqini yoritiladi. Staynbek ijodida ijtimoiy adolatsizlikka qarshi jamoaviy kurash, Qahhor asarlarida esa ma‘naviy qarshilik va vijdon masalalari asosiy g‘oya sifatida namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari Amerika va O‘zbek adabiy tafakkuridagi umumiy insonparvarlik tamoyillarini ochib berishga va hu botradagi bajarilayotgan ilmiy ishlarga nazariy asos bo‘lishga xizmat qilaoladi.*

**Kalit so‘zlar:** *inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat, Jon Staynbek, Abdulla Qahhor, “Nafrat uchqunlari”, “O‘tmishdan ertaklar”, qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy representatsiya, insonparvarlik, ma‘naviy qarshilik, ijtimoiy munosabatlar, inson erkinligi.*

**ARTISTIC REPRESENTATION OF HUMAN DIGNITY AND SOCIAL  
JUSTICE: A COMPARATIVE STUDY OF JOHN STEINBECK’S “THE GRAPES  
OF WRATH” AND ABDULLA QAHHOR’S “THE TALES FROM THE PAST”**

**Eleanora Norqulova Ismatulla kizi**

*2nd-year Master's Student in Linguistics  
(English Language) Karshi State University*

*E-mail: [eleanorankulova@gmail.com](mailto:eleanorankulova@gmail.com)*

**ANNOTATION**

*This article comparatively examines the artistic representation of human dignity and social justice in *The Grapes of Wrath* by John Steinbeck and *Tales from the Past* by Abdulla Kahhor.*

*The study analyzes the depiction of social inequality, poverty, human rights, moral freedom, and justice in both literary works. The findings reveal that Steinbeck emphasizes collective resistance against social injustice, whereas Kahhor highlights moral resistance, conscience, and ethical integrity as the primary means of preserving human dignity. The research demonstrates that despite cultural and historical differences, both writers promote humanistic values and advocate for justice and respect for human dignity.*

**Keywords:** *human dignity, social justice, John Steinbeck, Abdulla Qahhor, The Grapes of Wrath, The Tales from the Past, comparative literature, artistic representation, humanism, moral resistance, social relations, individual freedom.*

## **ХУДОЖЕСТВЕННАЯ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ: НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЖОНА СТЕЙНБЕКА «ГРОЗДЬЯ ГНЕВА» И АБДУЛЛЫ КАХХАРА «СКАЗКИ ИЗ ПРОШЛОГО»**

**Норкулова Элеанора Исматулла кизи**

*магистрант 2 курса направления «Лингвистика (английский язык)»*

*Каршинский государственный университет*

*E-mail: [eleanoranorkulova@gmail.com](mailto:eleanoranorkulova@gmail.com)*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проводится сравнительный анализ художественной репрезентации проблемы человеческого достоинства и социальной справедливости в романе Джона Стейнбека «Гроздь гнева» и повести Абдуллы Каххара «Сказки из прошлого». В исследовании рассматриваются особенности художественного осмысления социального неравенства, бедности, прав человека, духовной свободы и справедливости в произведениях обоих авторов. Выявлено, что в творчестве Стейнбека центральное место занимает коллективная борьба против социальной несправедливости, тогда как в произведениях Каххара основными идеями выступают нравственное сопротивление и голос совести. Результаты исследования позволяют раскрыть общие гуманистические принципы американской и узбекской литературной мысли и могут служить теоретической основой для дальнейших научных исследований в данной области.*

**Ключевые слова:** *человеческое достоинство, социальная справедливость, Джон Стейнбек, Абдулла Каххар, «Гроздь гнева», «Сказки из прошлого», сравнительное*

*литературоведение, художественная репрезентация, гуманизм, нравственное сопротивление, социальные отношения, свобода человека.*

## KIRISH

Jahon adabiyotida inson qadr-qimmatini va ijtimoiy adolat masalalari eng muhim va doimiy mavzulardan biri hisoblanadi. Har bir tarixiy davrda insonning jamiyatdagi o‘rni, uning erkinligi, huquqlari va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi mavqei turlicha talqin etilgan bo‘lsa-da, inson sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish g‘oyasi adabiyotning markaziy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, XX asrda sodir bo‘lgan iqtisodiy inqirozlar, urushlar, migratsiya jarayonlari va ijtimoiy tengsizliklar inson va jamiyat munosabatlarini yangi nuqtai nazardan yoritishni taqozo etdi. Natijada adabiyot nafaqat estetik hodisa, balki inson huquqlari, ijtimoiy adolat va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim badiiy maydonga aylandi. Bugungi globallashuv va murakkab ijtimoiy jarayonlar sharoitida inson qadr-qimmatini va ijtimoiy adolat muammolarini badiiy asarlar misolida tadqiq etish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiyot insonning ichki dunyosi, uning jamiyat bilan munosabatlari hamda turli ijtimoiy bosimlar ostidagi ruhiy holatini chuqur yoritish imkoniyatiga ega. Shu jihatdan qaralganda, Amerika adabiyotining yirik namoyandasi John Steaynbek hamda o‘zbek adabiyotining atoqli vakili Abdulla Qahhor ijodi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Inson qadr-qimmatini tushunchasi shaxsning jamiyatdagi ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy qadri sifatida namoyon bo‘lsa, ijtimoiy adolat jamiyatdagi tenglik, haqqoniylik va inson huquqlarining ta’minlanishi bilan bog‘liq tushunchadir. Ushbu ikki kategoriya bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, inson qadr-qimmatining tan olinishi va himoya qilinishi ko‘p jihatdan ijtimoiy adolatning mavjudligiga bog‘liqdir. Adabiyot esa aynan shu murakkab munosabatlarni badiiy obrazlar, konfliktlar va ramzlar vositasida ochib beradi.

Jon Staynbekning “Nafrat uchqunlari” romani Buyuk Depressiya davridagi iqtisodiy tengsizlik, kambag‘allik va inson huquqlarining poymol etilishi muammolarini yoritadi. Asarda Joadlar oilasi taqdiri orqali oddiy insonlarning qadr-qimmatini uchun kurashi, adolatsiz ijtimoiy tizimga qarshi ma’naviy qarshiligi tasvirlanadi. Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasida esa insonning ma’naviy erkinligi, vijdoni, or-nomusi va jamiyatdagi adolatsizliklarga munosabati badiiy talqin qilinadi. Har ikki yozuvchi turli madaniy va tarixiy muhit vakili bo‘lishiga qaramasdan, insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surishi, inson qadr-qimmatini va adolat masalalariga alohida e’tibor qaratishi bilan bir-biriga yaqinlashadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Jon Staynbekning “Nafrat uchqunlari” romani hamda Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasida inson qadr-qimmatini va ijtimoiy adolat muammosining badiiy reprezentatsiyasini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, germeneytik hamda badiiy tahlil metodlaridan

foydalaniladi. Ushbu metodlar orqali asarlardagi ijtimoiy adolat konsepsiyasi, inson qadr-qimmatining badiiy ifodalanish usullari hamda yozuvchilarning estetik va falsafiy qarashlari tadqiq etiladi.

Tahlillar natijasida Staynbek va Qahhor ijodida inson qadr-qimmati va ijtimoiy adolat masalalari turli badiiy shakllarda ifodalangan bo‘lsa-da, ularning negizida insonparvarlik, axloqiy mas’uliyat va jamiyatni ma’naviy takomillashtirish g‘oyalari mujassam ekanligi yoritiladi.

### ASOSIY QISM

Jon Staynbek ijodida inson qadr-qimmati va ijtimoiy adolat masalalari XX asr Amerika jamiyatining murakkab tarixiy voqealari bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Ayniqsa, uning mashhur “Nafrat uchqunlari” romani Buyuk Depressiya davrida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz, kambag‘allik, ommaviy migratsiya va ijtimoiy tengsizlik muammolarining badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Asarda iqtisodiy tizimning oddiy inson hayotiga ko‘rsatgan salbiy ta’siri, inson qadr-qimmatining iqtisodiy manfaatlar yo‘lida toptalishi hamda ijtimoiy adolatning buzilishi chuqur realizm asosida tasvirlangan. 1930-yillarda AQSHda yuz bergan Buyuk Depressiya millionlab fermerlarning iqtisodiy halokatiga sabab bo‘ldi. Yerlarning banklar tomonidan tortib olinishi, qishloq xo‘jaligida mexanizatsiyaning kuchayishi va kapitalistik munosabatlarning hukmronligi natijasida minglab oilalar o‘z uy-joylarini tark etishga majbur bo‘ldilar. Staynbek ushbu tarixiy jarayonni oddiy iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki inson erkinligi va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan tizimli bosim sifatida talqin qiladi. Roman markazida turgan Joadlar oilasi taqdiri butun bir ijtimoiy qatlamning fojiasini aks ettiradi. Ular o‘z yerlaridan mahrum qilinib, Kaliforniyaga ish izlab yo‘l olishga majbur bo‘ladilar. Asarda banklar inson manfaatlarini inkor etuvchi va jamiyat ustidan hukmronlik qiluvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Muallif banklarning g‘ayriinsoniy mohiyatini quyidagi mashhur metafora orqali ifodalaydi:

“The Bank – or the Company – needs – wants – insists – must have – as though the Bank or the Company were a monster...”<sup>78</sup>

Mazkur sitatada bank “monster” (maxluq) obrazida tasvirlanadi. Bu obraz kapitalistik tizimning inson ustidan hukmronligini va uning oddiy inson taqdiriga befarqligini ramziy jihatdan ifodalaydi. Steinbeck nazarida iqtisodiy tizim shunchalik kuchayib ketganki, uni boshqarayotgan odamlarning o‘zi ham uning quliga aylanib qolgan. Natijada inson qadr-qimmati iqtisodiy manfaatlardan keyingi o‘ringa tushib qoladi. Joadlar oilasining Kaliforniya sari safari ham ijtimoiy adolatsizlikning turli ko‘rinishlarini ochib beradi. Ular yo‘lda qashshoqlik, ochlik, kamsitilish va ekspluatatsiyaga duch keladilar. Kaliforniyaga yetib

<sup>78</sup> Steinbeck, John. *The Grapes of Wrath*. London: Penguin Books, 2000, p – 36.

kelgach ham kutilgan adolatli hayotni topa olmaydilar. Ishchi kuchining haddan tashqari ko‘pligi sababli ish haqi sun’iy ravishda pasaytiriladi va migrantlar o‘zaro raqobatga majbur qilinadi. Bu esa kapitalistik tizimning insonlarni bir-biriga qarshi qo‘yish orqali o‘z manfaatlarini himoya qilishini ko‘rsatadi.

### **Inson qadr-qimmatining saqlanib qolishi.**

“Nafrat uchqunlari” romanida iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy bosimlarga qaramay, inson qadr-qimmatining saqlanib qolishi markaziy g‘oyalardan biri hisoblanadi. Steinbeck insonning haqiqiy buyukligi uning moddiy imkoniyatlarida emas, balki ma’naviy kuchi, birdamligi va insoniyligini saqlab qolish qobiliyatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu g‘oya ayniqsa Tom Joad obrazi orqali yorqin ifodalanadi. Asar boshida Tom o‘z manfaatlarini ko‘zlaydigan oddiy inson sifatida namoyon bo‘lsa, voqealar rivoji davomida uning dunyoqarashi tubdan o‘zgaradi. Jim Casy ta’sirida u shaxsiy manfaatlardan voz kechib, jamiyat manfaatlarini haqida o‘ylay boshlaydi. Natijada Tom individual manfaatlardan jamoaviy mas’uliyat sari rivojlanadi. Bu holat romanning eng muhim falsafiy xulosalaridan biri hisoblanadi. Ma Joad obrazi esa oilaviy birdamlik va ma’naviy barqarorlik timsolidir. Oilaning deyarli barcha a’zolari ruhiy tushkunlikka tushgan paytda aynan Ma Joad oilani birlashtirib turuvchi markaziy kuchga aylanadi. U inson qadr-qimmatini boylik yoki ijtimoiy mavqe bilan emas, insoniylik va mehr-shafqat bilan o‘lchaydi. Jim Casy obrazi romanning axloqiy va falsafiy markazini tashkil etadi. Sobiq ruhoni bo‘lgan Casy insonlarni bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan yagona ijtimoiy organizm sifatida tushunadi. U inson baxti jamiyat baxtidan ajralmasligini ta’kidlaydi. Shu sababli uning qarashlari individualizmdan kollektiv birdamlikka o‘tish g‘oyasining nazariy asosiga aylanadi. Steinbeck inson qadr-qimmatini aynan jamoaviy birdamlik orqali himoya qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Muallif nazarida adolatsiz tizimga qarshi kurashda alohida shaxs ojiz bo‘lishi mumkin, ammo birlashgan insonlar o‘z qadr-qimmatlarini saqlab qolishga qodirdirlar. Roman nomida qo‘llanilgan “grapes” (uzum) obrazi eng muhim ramzlardan biridir. Dastlab u hosildorlik va farovonlik timsoli sifatida namoyon bo‘lsa-da, voqealar rivoji davomida mazmunan o‘zgaradi. Steinbeck ushbu ramz orqali kambag‘allar qalbida yig‘ilib borayotgan g‘azab, norozilik va adolat talabini ifodalaydi. Natijada uzum obrazi ijtimoiy norozilikning ramziga aylanadi. Mazkur ramzning ma’nosi Amerika madaniyatidagi “Battle Hymn of the Republic” qo‘shig‘i bilan ham bog‘liq. Ushbu qo‘shiqda adolatning muqarrar g‘alabasi va zulm ustidan haqiqatning ustun kelishi g‘oyasi ilgari suriladi. Staynbek ham aynan shu an’anani davom ettirib, ijtimoiy adolatsizlikka asoslangan tizim uzoq yashay olmasligini ko‘rsatadi. Asarda qo‘llanilgan boshqa ramzlar ham inson qadr-qimmatini va ijtimoiy adolat masalalarini ochishga xizmat qiladi. Toshbaqa obrazi insonning matonati va yashash uchun kurashini anglatrsa, migrantlar

lagerlari jamoaviy birdamlik va o‘zaro yordam g‘oyasining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

**“O‘tmishdan ertaklar” asarida ijtimoiy muhit.**

Abdulla Qahhor ijodida inson qadr-qimmati va ijtimoiy adolat masalalari xalq hayotining real voqealari asosida tasvirlanadi. Adib insonning ichki dunyosini ochishda uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitga alohida e‘tibor qaratadi. “O‘tmishdan ertaklar” qissasi ham ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda XX asr boshlaridagi o‘zbek jamiyatining murakkab ijtimoiy manzarasi, kambag‘allik, maishiy qiyinchiliklar va inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi omillar badiiy jihatdan yoritilgan. Asarda tasvirlangan tor va siqiq hovli muhiti qahramonlarning nafaqat yashash sharoitini, balki ularning ruhiy holatini ham aks ettiruvchi muhim badiiy detal hisoblanadi. Qahhor makonni shunchaki fon sifatida emas, balki inson taqdiriga bevosita ta’sir qiluvchi omil sifatida talqin qiladi. Tor hovli, past turmush darajasi va kundalik ehtiyojlar bilan bog‘liq muammolar qahramonlarning erkin yashash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu jihatdan qaralganda, makon insonning ma’naviy erkinligi va ijtimoiy mavqeiini ifodalovchi ramziy vositaga aylanadi. Asardagi qashshoqlik tasvirlari ham inson qadr-qimmati muammosini ochishda muhim o‘rin tutadi. Qahhor kambag‘allikni faqat moddiy yetishmovchilik sifatida emas, balki insonning ruhiy dunyosiga ta’sir qiluvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rsatadi. Qahramonlar kundalik hayot tashvishlari bilan yashashga majbur bo‘lsalar-da, o‘z insoniy qiyofalarini saqlab qolishga intiladilar. Shu jihatdan yozuvchi inson qadr-qimmati moddiy boyluk bilan emas, ma’naviy barkamollik bilan belgilanishini ta’kidlaydi. Qissada mahalla muhiti va jamoatchilik fikri ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalla odamlarning xulq-atvori va dunyoqarashiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, u insonlarni birlashtiruvchi kuch vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, shaxs erkinligini cheklovchi bosim manbai sifatida ham ko‘rinadi. Aynan shu jihat orqali Qahhor jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. “Olim buvaning ichki hovlisi ham tor, ustini boshdan oyoq tok qoplagani uchun dim...<sup>79</sup>”

Umuman olganda, “O‘tmishdan ertaklar” asaridagi tor hovli, qashshoqlik va mahalla muhiti inson qadr-qimmati va ijtimoiy adolat masalalarini yoritishga xizmat qiluvchi muhim badiiy vositalardir. Qahhor ushbu vositalar orqali insonning og‘ir sharoitlarda ham o‘z ma’naviy qiyofasini saqlab qolish qobiliyatini ko‘rsatadi. “O‘tmishdan ertaklar” qissasidagi eng muhim obrazlardan biri Temirchi ota obrazidir. Ushbu qahramon orqali Abdulla Qahhor inson qadr-qimmati, mehnatsevarlik, halollik va ma’naviy ustunlik g‘oyalarini ifodalaydi. Temirchi ota asardagi boshqa qahramonlardan o‘zining ruhiy kuchi va axloqiy pozitsiyasi

<sup>79</sup> Qahhor A. *O‘tmishdan ertaklar*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.b – 3.

bilan ajralib turadi. Qahhor nazarida insonning haqiqiy buyukligi uning boyligi yoki jamiyatdagi mavqeida emas, balki vijdoni va ma'naviy pokligidadir. Temirchi ota og'ir hayot sharoitida yashasa ham, o'z prinsiplaridan voz kechmaydi. U mehnatni eng oliy qadriyat deb biladi va har qanday vaziyatda ham insoniylik mezonlariga amal qiladi. Shu sababli u asarda ma'naviy ustunlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Temirchi ota obrazi orqali yozuvchi ijtimoiy adolatsizlikka qarshi ma'naviy qarshilik g'oyasini ilgari suradi. U ochiq isyon ko'tarmaydi, jamiyatga qarshi kurashmaydi, biroq o'zining halolligi va vijdoniga sodiqligi orqali mavjud adolatsizliklarni fosh etadi. Bu jihat Sharq adabiyotiga xos bo'lgan axloqiy qarshilik modelini aks ettiradi. Asardagi ko'plab qahramonlar moddiy manfaat yoki ijtimoiy bosim ta'sirida harakat qilgan bir paytda, Temirchi ota o'zining insoniy qadr-qimmatini saqlab qoladi. Aynan shu jihat uni asarning eng muhim ma'naviy markaziga aylantiradi. Qahhor uchun insonning haqiqiy erkinligi tashqi sharoitlarga emas, balki uning ichki dunyosiga bog'liqdir. Abdulla Qahhor ijodining muhim xususiyatlaridan biri adolat va haqiqat masalalariga alohida e'tibor qaratilishidir. Yozuvchi jamiyatdagi muammolarni ochib berish orqali insonni fikrlashga, mavjud kamchiliklarni anglashga va ularni bartaraf etishga undaydi. Shu jihatdan uning asarlarida adolat tushunchasi ijtimoiy va ma'naviy mazmun kasb etadi. Qahhor adolatni faqat qonun yoki siyosiy tizim bilan bog'lamaydi. U avvalo insonning vijdoni, axloqiy qarashlari va ma'naviy pokligi bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu sababli uning qahramonlari ko'pincha tashqi kurashdan ko'ra ichki kurash orqali kamol topadilar.

Adibning quyidagi mashhur fikri uning estetik qarashlarini yaqqol ifodalaydi: "Yozuvchi jamiyatdagi illatlarni ko'rsatmasa, xalq ham ularni sezmaydi."<sup>80</sup> Mazkur fikr yozuvchining adabiyot oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini anglatadi. Qahhor nazarida yozuvchi nafaqat voqealarni tasvirlashi, balki jamiyatdagi adolatsizliklarni ko'rsatishi va odamlarni o'ylashga majbur qilishi kerak. "O'tmishdan ertaklar" qissasida ma'naviy qarshilik turli obrazlar va voqealar orqali namoyon bo'ladi. Qahramonlar ko'pincha ochiq kurash olib bormaydilar, ammo vijdonlariga xiyonat qilmaslik orqali o'z qadr-qimmatlarini himoya qiladilar. Bu holat Sharq adabiy tafakkurining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Qahhor ijodida adolat tushunchasi ma'naviy poklik, vijdon va axloqiy mas'uliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Yozuvchi insonning jamiyatdagi o'rnini aynan shu qadriyatlar orqali belgilaydi va ma'naviy qarshilikni inson qadr-qimmatini saqlab qolishning asosiy vositasi sifatida talqin qiladi.

Jon Staynbek va Abdulla Qahhor asarlarida inson qadr-qimmatini va ijtimoiy adolat masalalari umumiy g'oyaviy asosga ega bo'lsa-da, ularning badiiy talqini turlicha namoyon bo'ladi. Eng muhim farqlardan biri adolatsizlikka qarshi kurash shakllarida

<sup>80</sup> Qahhor A. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982, 3-jild. b – 314.

kuzatiladi. Steinbeck asarlarida qahramonlar ijtimoiy adolatsizlikka ochiq qarshilik ko‘rsatadilar. “Nafrat uchqunlari” romanida Tom Joad va boshqa migrantlar iqtisodiy ekspluatatsiyaga qarshi kurashga kirishadilar. Ularning noroziligi individual darajadan ijtimoiy darajaga ko‘tariladi. Shu sababli Staynbek ijodida erkinlik faol harakat va ijtimoiy kurash bilan bog‘lanadi. Qahhor ijodida esa qarshilikning boshqa shakli kuzatiladi. Uning qahramonlari jamiyatga qarshi ochiq isyon ko‘tarmaydilar. Aksincha, ular vijdoniga sodiq qolish, halollikni saqlash va ma‘naviy poklikni yo‘qotmaslik orqali adolatsizlikka qarshi turadilar. Bu holat ichki qarshilik yoki ma‘naviy qarshilik sifatida namoyon bo‘ladi.

### **Amerika va O‘zbek adabiy tafakkuridagi umumiylik.**

Amerika va O‘zbek adabiy an‘analari o‘rtasidagi farqlarga qaramasdan, Staynbek va Qahhor ijodida insonparvarlik g‘oyalari mushtarakdir. Har ikki yozuvchi inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e‘tirof etadi va jamiyatning haqiqiy taraqqiyoti inson manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq ekanligini ta‘kidlaydi. Steinbeck inson qadr-qimmatini ijtimoiy tenglik va adolat bilan bog‘lasa, Qahhor uni ma‘naviy poklik va vijdon bilan bog‘laydi. Biroq ikkala holatda ham inson shaxsining daxlsizligi va hurmati markaziy o‘rinni egallaydi. Shuningdek, har ikki adib jamiyat oldidagi mas‘uliyat g‘oyasini ilgari suradi. Staynbek jamoaviy birdamlikni, Qahhor esa axloqiy mas‘uliyatni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin qiladi. Shu sababli ularning asarlari turli madaniy muhitlarda yaratilgan bo‘lsa-da, insonparvarlik va adolat g‘oyalari jihatidan bir-birini to‘ldiradi.

### **XULOSA**

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Jon Staynbek va Abdulla Qahhor ijodida inson qadr-qimmatini va ijtimoiy adolat masalalari markaziy o‘rin egallaydi. Har ikki yozuvchi insonni jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida tasvirlaydi hamda adolatsizlikning turli shakllarini badiiy vositalar orqali fosh etadi. Staynbek ijtimoiy adolat muammosini iqtisodiy tengsizlik va ochiq kurash orqali yoritadi. Uning qahramonlari inson qadr-qimmatini himoya qilish uchun faol ijtimoiy harakatga kirishadilar. Qahhor esa adolat va erkinlik masalalarini ko‘proq ma‘naviy nuqtai nazardan talqin qiladi. Uning qahramonlari ichki qarshilik, vijdon va axloqiy poklik orqali insoniylikni saqlab qoladilar. Amerika va O‘zbek adabiy tafakkuri o‘rtasidagi uslubiy farqlarga qaramay, har ikki yozuvchining asarlarida insonparvarlik, adolat va jamiyat oldidagi mas‘uliyat g‘oyalari umumiy ma‘naviy asos sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Staynbek va Qahhor ijodi inson qadr-qimmatini va ijtimoiy adolat muammolarining badiiy talqinini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Howe J.W. Battle Hymn of the Republic // The Atlantic Monthly. – Boston, 1862. – Vol. 10. 10–11 p.
2. Lisca P. The Wide World of John Steinbeck. – New Brunswick: Rutgers University Press, 1972. – 360 p.
3. Steinbeck J. The Grapes of Wrath. – London: Penguin Books, 2000. – 619 p.
4. Қахҳор А. Ўтмишдан эртақлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 240 б.
5. Қахҳор А. Танланган асарлар: 3 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – 314 б.
6. Шарафиддинов О. Абдулла Қахҳор. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 320 б.
7. Шукурова С.О. Жон Стейнбек ва Назар Эшонкул асарларида шахс эрки ва бадий тафаккур муаммолари: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2023. – 50 б.